

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING LINGVISTIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH MEZONLARI

КРИТЕРИИ ФОРМИРОВАНИЯ ЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

CRITERIA FOR DEVELOPING LINGUISTIC COMPETENCE IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Saule Sarsengalieвна Tajbenova

Nukus davlat pedagogika instituti

p.f.d., dotsent

tajbenova.saule@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tili va o'qish savodxonligi darslarida lingvistik kompetensiyasini shakllantirish masalalari yoritilgan. Lingvistik kompetensiyaning mazmuni, uni tashxislash usullari va mezonlari tahlil qilingan. O'quvchilarning tilga oid bilimlari va amaliy nutqiy ko'nikmalarini aniqlashda tashxislovchi topshiriqlar hamda nazorat ishlarining ahamiyati asoslangan. Shuningdek, boshlang'ich ta'lim jarayonida til bilimlari, ko'nikmalari va nutq madaniyatini o'zaro bog'liq holda shakllantirish zarurligi ko'rsatilgan.

Tayanch so'zlar: *boshlang'ich ta'lim, lingvistik kompetensiya, til bilimlari, nutqiy ko'nikmalar, tashxislash, nutq madaniyati.*

Аннотация. В статье освещаются вопросы формирования лингвистической компетенции учащихся начальных классов на уроках родного языка и читательской грамотности. Проанализированы содержание лингвистической компетенции, методы и критерии её диагностики. Обосновано значение диагностических заданий и контрольных работ для определения языковых знаний и практических речевых умений учащихся. Также показана необходимость взаимосвязанного формирования языковых знаний, умений и речевой культуры в процессе начального образования.

Ключевые слова: *начальное образование, лингвистическая компетенция, языковые знания, речевые умения, диагностика, речевая культура.*

Abstract. The article addresses the development of linguistic competence among primary school students in native language and reading literacy lessons. The content of linguistic competence, as well as methods and criteria for its diagnosis, are analyzed. The importance of diagnostic tasks and assessment activities in identifying students' language knowledge and practical speech skills is substantiated. The article also emphasizes the need to develop language knowledge, skills, and speech culture in an interconnected manner within the primary education process.

Keywords: *primary education, linguistic competence, language knowledge, speech skills, diagnostics, speech culture.*

Kirish. Bugungi kunda o'quvchilarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki ularni amaliy faoliyatda qo'llash, mustaqil fikrlash, o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda aniq, izchil hamda savodli ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish muhim pedagogik vazifalardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida ona tili va o'qish savodxonligi darslari o'quvchilarning til birliklarini to'g'ri qo'llashi, grammatik va imloviy me'yorlarga rioya qilishi, o'z nutqini nazorat qilishi hamda kommunikativ vaziyatga muvofiq fikr bildirish kompetensiyalarini shakllantirish uchun muhim didaktik imkoniyatlarga ega.

Shuningdek, o'quvchilarda zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirish va ta'lim jarayonini amaliy faoliyat bilan uzviy bog'lash boshlang'ich ta'lim metodikasining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2023-yil 26-maydagi PF-79-son Farmonida maktab ta'limi sifatini oshirish, ta'lim jarayonini zamonaviy talablar asosida tashkil etish hamda o'quvchilarning bilim va kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan vazifalar belgilangan [1]. Mazkur vazifalar boshlang'ich sinf o'quvchilarining lingvistik kompetensiyasini shakllantirish jarayoniga ham bevosita taalluqlidir. Chunki ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchining faqat til qoidalarini bilishi emas, balki ushbu bilimlardan amaliy nutqiy faoliyatda foydalana olishi ta'lim samaradorligining muhim ko'rsatkichlaridan hisoblanadi.

Lingvistik kompetensiya o'quvchining til birliklarini anglash, ularning qo'llanish xususiyatlarini bilish, grammatik va imloviy qoidalardan amaliy faoliyatda foydalanish, nutq jarayonida yuzaga keladigan xatolarni aniqlash va tuzatish, til hodisalarini tahlil qilish hamda o'z fikrini asoslash qobiliyatlarini qamrab oluvchi murakkab pedagogik hodisadir.

Boshlang'ich sinf o'quvchisida lingvistik kompetensiyaning shakllanganligi, avvalo, til birliklarining talaffuzi va imlosiga oid qoidalarni bilish, ularni nutq mahsulini yaratish jarayonida qo'llash, o'zining yoki o'zgalarning xatolarini aniqlash, tuzatish hamda xatoni tuzatish sababini tegishli qoida asosida tushuntirish olishida namoyon bo'ladi.

Shu sababli lingvistik kompetensiyaning shakllantirish jarayonida o'quvchining bilimini nazorat qilish va uning rivojlanganlik darajasini aniqlash masalasi alohida metodik ahamiyatga ega. Bunda nazorat faqat o'zlashtirilgan qoidalarni qayta aytib berishni aniqlash bilan chegaralanmasdan, o'quvchining ushbu bilimlarni amaliy faoliyatga tatbiq etish darajasini ham ko'rsatishi lozim.

Adabiyotlar tahlili. Lingvistik kompetensiyaning mazmuni va uni aniqlash masalalari pedagogik hamda metodik tadqiqotlarda turli nuqtayi nazarlardan o'rganilgan.

M.V. Dubova o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlashda individual tarzda amalga oshiriladigan diagnostik topshiriqlardan foydalanish muhimligini ta'kidlaydi [2]. Mazkur yondashuv o'quvchining umumiy natijasiga emas, balki uning individual bilim va ko'nikmalarini aniqlash imkonini beradi. Ayniqsa, lingvistik kompetensiyani diagnostika qilishda individual topshiriqlar o'quvchining xatoni qanday aniqlagani, qaysi qoidaga tayangani va o'z javobini qanday asoslaganini aniqlash uchun qulaydir.

D.S. Karaseva lingvistik kompetensiyaning shakllanganligini til birliklarini taniy olish, til materialini tahlil qilish, tushuntirish, isbotlash, tasniflash, turli lingvistik tahlillarni amalga oshirish va u yoki bu til birligini o'z nutqida to'g'ri qo'llash usullarining egallanganligi bilan izohlaydi [3]. Tadqiqotchining yondashuvida lingvistik kompetensiya faqat nazariy bilimlar yig'indisi sifatida emas, balki turli aqliy va amaliy harakatlarda namoyon bo'ladigan kompetensiya sifatida talqin qilinadi.

M.R. Lvov esa o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini baholashda mazmun, kompozitsiya, til xususiyatlari, og'zaki ijro va yozma ishning sifatiga e'tibor berishni tavsiya etadi [4]. Uning yondashuvida nutqning mazmuni, mantiqiyliigi, til vositalarining to'g'ri tanlanishi, grammatik va imloviy me'yorlarga rioya qilinishi, talaffuz va nutqning ifodaliligi kabi jihatlar muhim mezon sifatida qaraladi.

L.V. Cherepanovanning izohlashicha, lingvistik kompetensiya mazmunini tashkil etuvchi bilim, ko'nikma va malakalar hamda o'quv-biluv faoliyati ta'lim metod va usullari yordamida amalga oshiriladigan o'qitish tizimi orqali rivojlanadi va shakllanadi [152]. Shubhasiz, bundagi o'quv-biluv faoliyati fonetik, leksik, morfem, frazeologik, so'z yasalishi, morfologik, sintaktik til hodisalari intellektual-fikrlash tavsifida kechadi.

Mazkur ilmiy qarashlarni umumlashtirish shuni ko'rsatadiki, lingvistik kompetensiyani baholashda uch asosiy yo'nalish o'zaro bog'liq holda namoyon bo'ladi: til bilimlarini egallash, ularni amaliy faoliyatda qo'llash va til hodisalarini tahlil qilish. Shundan kelib chiqib, lingvistik kompetensiyani diagnostika qilishda qoidani bilishdan boshlab, uni yangi vaziyatda mustaqil qo'llashgacha bo'lgan faoliyat bosqichlarini qamrab oluvchi topshiriqlar tizimini ishlab chiqish zarur.

Natijalar. Tadqiqotda lingvistik kompetensiyani shakllantirish va diagnostika qilish masalasini o'rganishda ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, pedagogik kuzatish hamda diagnostik topshiriqlarni metodik jihatdan tahlil qilish usullaridan foydalanildi.

Diagnostik topshiriqlar mazmuniga ko'ra uch guruhga ajratildi.

Birinchi guruh – reproduktiv topshiriqlar. Ular o‘quvchining qoidalarini eslab qolishi va qayta tiklay olishini aniqlashga qaratiladi. Bunday topshiriqlarga berilgan til birligiga mos qoidani ko‘rsatish, berilgan qoidaga tegishli til birligini topish, qoidani eslab aytish va tegishli misollarni keltirish kiradi.

Ikkinchi guruh – amaliy topshiriqlar. Ushbu topshiriqlar o‘quvchining o‘zlashtirilgan bilimni amaliy faoliyatda qo‘llay olish darajasini aniqlaydi. Masalan, xato yozilgan so‘zlarni topish, ularni tegishli qoida asosida tuzatish, xatoning sababini izohlash va to‘g‘ri shaklni tiklash.

Uchinchi guruh – muammoli va ijodiy topshiriqlar. Bunda o‘quvchidan avval o‘rganilgan qoidani yangi til materialiga tatbiq etish, yangi vaziyatda xatoni aniqlash, umumiy til hodisasi asosida mustaqil izoh berish talab etiladi.

Tadqiqot natijasida lingvistik kompetensiyani diagnostika qilishda nazorat topshiriqlarini faqat reproduktiv xarakterda tashkil etish yetarli emasligi aniqlandi. O‘quvchi qoidani yoddan ayta olishi mumkin, biroq uni amaliy vaziyatda qo‘llay olmasligi ehtimoli mavjud. Shu sababli diagnostika jarayonida qoidani bilish bilan bir qatorda uni qo‘llash, xatoni aniqlash, tuzatish va izohlashga qaratilgan topshiriqlardan foydalanish zarur.

Lingvistik kompetensiyani aniqlash uchun quyidagi diagnostik topshiriqlardan foydalanish mumkin:

- berilgan qoidalar orasidan muayyan til birligiga mos qoidani topish;
- berilgan til birliklari orasidan ma’lum qoidaga moslarini aniqlash;
- berilgan til birligiga tegishli qoidani eslab aytish;
- berilgan qoidaga tegishli til birligini topish;
- matn yoki e’londan xato yozilgan so‘zlarni aniqlash;
- aniqlangan xatolarni tegishli qoida asosida tuzatish;
- xatoning kelib chiqish sababini izohlash;
- so‘zning talaffuzi va yozilishi o‘rtasidagi farqni aniqlash;
- til hodisasini tegishli grammatik guruhga ajratish;
- o‘rganilgan qoidani yangi til materialiga tatbiq etish.

Masalan, *daraxt, rost, go’sht, to‘rt* so‘zlari berilganda o‘quvchidan ularning talaffuzida yuz beradigan o‘zgarishlarni aniqlash, ushbu o‘zgarishlarning sababini izohlash va tegishli fonetik bilimlardan foydalanish talab qilinishi mumkin.

Biroq boshlang‘ich ta’lim sharoitida mazkur yondashuvni amaliy diagnostika topshiriqlari orqali yanada aniqlashtirish zarur. Bizning yondashuvimizda o‘quvchining kompetensiyasi qoidani aytib berish bilan emas, balki xatoni aniqlash, uni tegishli qoida asosida tuzatish va o‘z qarorini izohlash orqali ham baholanadi. Bu esa lingvistik bilimlarning amaliy xarakterini aniqlash imkonini beradi.

Lingvistik kompetensiyaga til birliklarini qo‘llay olish ham kiritilgani uchun o‘rganilgan qoidalarini yodga olib to‘g‘ri yozish malakasini tekshirish imkonini

beradigan yozma ish turi – diktant o‘tkazish mumkin. Diktant ham o‘quvchilarning lingvistik kompetensiyasini aniqlashda samarali vositalardan biridir. Bunda o‘quvchilarda imloviy xatolarni yuzaga keltirishi mumkin bo‘lgan so‘z shakllari tanlanadi va so‘zlashuv uslubida aytib turib yozdiriladi. Masalan, *daraxtda, yuribdi, qizil tusga* kabi so‘z va birikmalar orqali o‘quvchining talaffuzga emas, balki imlo qoidasiga tayangan holda yozish ko‘nikmasi aniqlanadi.

Biroq bayon va insho kabi ijodiy yozma ishlarni muayyan qoidalar guruhini nazorat qilishga to‘liq bo‘ysundirish qiyin. Shu sababli ulardan lingvistik kompetensiyaning muayyan elementlarini diagnostika qilishdan ko‘ra, o‘quvchilarning umumiy nutqiy faoliyatini rivojlantirish va baholashda foydalanish maqsadga muvofiq.

Tadqiqot natijalari lingvistik kompetensiyaning nutqiy kompetensiya bilan uzviy aloqadorligini ham ko‘rsatadi. Boshlang‘ich sinflarda to‘g‘ri talaffuz, imloviy savodxonlik, so‘z tarkibi, so‘zlarni nutqda to‘g‘ri qo‘llash, morfologik va sintaktik bilimlar o‘zaro bog‘liq holda shakllanadi.

Shu asosida o‘quvchi nutqini baholashda mazmunning mavzuga muvofiqligi, fikrlarning mantiqiyliigi, gaplarning grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzilishi, so‘zlarning maqsadga muvofiq tanlanishi, nutqning aniqligi va tushunarliigi, talaffuzning to‘g‘riligi, ohang va sur‘at, shuningdek, imloviy xatolar kabi ko‘rsatkichlarni hisobga olish lozim.

Natijalar umumlashtirilganda, lingvistik kompetensiyaning shakllanganlik darajasini quyidagi izchil faoliyat orqali aniqlash mumkinligi belgilandi:

tanish → eslash → qo‘llash → xatoni aniqlash → xatoni tuzatish → izohlash → yangi vaziyatga ko‘chirish.

Mazkur ketma-ketlik o‘quvchining bilimni mexanik ravishda yodlaganligini emas, balki uni ongli ravishda o‘zlashtirib, amaliy faoliyatda qo‘llay olishini aniqlash imkonini beradi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari lingvistik kompetensiyani faqat nazariy bilimlar bilan chegaralash mumkin emasligini ko‘rsatdi. Bu jihat D.S. Karasevaning lingvistik kompetensiya til birliklarini taniy olish, tahlil qilish, tushuntirish, tasniflash va nutqda to‘g‘ri qo‘llash orqali namoyon bo‘lishi haqidagi qarashlari bilan mos keladi [3].

M.V. Dubovanning individual diagnostik topshiriqlardan foydalanish haqidagi qarashlari ham tadqiqot natijalari bilan uyg‘unlashadi [2]. Chunki lingvistik kompetensiyaning ayrim komponentlarini, xususan, xatoni aniqlash va uni izohlash qobiliyatini yalpi nazorat orqali to‘liq aniqlash qiyin. Individual topshiriqlar o‘quvchining fikrlash jarayonini kuzatish va uning qaysi bosqichda qiyinchilikka duch kelayotganini aniqlash imkonini beradi.

M.R. Lvov tomonidan ilgari surilgan nutqni mazmun, kompozitsiya, til va og‘zaki ijro jihatlaridan baholash mezonlari ham lingvistik kompetensiyani kompleks

diagnostika qilish zarurligini ko'rsatadi [4]. Shu bilan birga, lingvistik kompetensiyani diagnostika qilishda nutqiy natijalarni grammatik va imloviy bilimlardan ajratib qo'yimaslik lozim. Chunki o'quvchining til qoidalarini amaliy qo'llashi aynan og'zaki va yozma nutqda namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, tadqiqotda taklif etilgan diagnostik yondashuv mavjud ilmiy qarashlarni inkor etmaydi, balki ularni boshlang'ich ta'lim sharoitida amaliy nazorat topshiriqlari bilan konkretlashtiradi. Ayniqsa, "qoida – til birligi – amaliy qo'llash – xatoni aniqlash – izohlash" ketma-ketligi o'quvchining lingvistik kompetensiyasini bosqichma-bosqich aniqlash imkonini beradi.

Muhokama natijasida shuni ta'kidlash mumkinki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining lingvistik kompetensiyasini baholashda birgina nazorat vositasiga tayanish yetarli emas. Diagnostik topshiriqlar, individual so'rov, diktant, xatolar ustida ishlash, og'zaki savol-javob va amaliy vazifalarni o'zaro uyg'unlashtirish kompetensiyaning turli tarkibiy qismlarini aniqlashga imkon beradi.

Xulosa. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining lingvistik kompetensiyasini shakllantirish va diagnostika qilish jarayonini takomillashtirishda asosiy e'tibor til qoidalarini mexanik yodlatishdan ularni ongli ravishda qo'llashga yo'naltirilishi lozim.

Lingvistik kompetensiyaning rivojlanganlik darajasi o'quvchining til birliklarini taniy olishi, tegishli qoidalarni bilishi, qoidalarni amaliy vaziyatda qo'llashi, xatolarni aniqlashi va tuzatishi, xatolar sababini izohlashi, o'z fikrini asoslay olishi hamda o'zlashtirilgan bilimlarni yangi til materialiga ko'chira olishi orqali namoyon bo'ladi.

Diagnostika jarayonida reproduktiv, amaliy, muammoli va ijodiy topshiriqlarning o'zaro uyg'unligi o'quvchining lingvistik kompetensiyasini har tomonlama aniqlash imkonini beradi. Ayniqsa, xatoni topish, tegishli qoidani aniqlash, xatoni tuzatish va tuzatish sababini izohlashga yo'naltirilgan topshiriqlar lingvistik kompetensiyaning amaliy darajasini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, lingvistik va nutqiy kompetensiyalar o'zaro uzviy bog'liq bo'lganligi sababli ularni baholashda og'zaki va yozma nutqning mazmuni, mantiqiyliqi, grammatik to'g'riligi, imloviy savodxonligi, aniqligi, tushunariligi va ifodaliligini ham hisobga olish zarur.

Umuman, boshlang'ich sinf o'quvchilarining lingvistik kompetensiyasini diagnostika qilish "bilish – tushunish – qo'llash – aniqlash – tuzatish – izohlash – yangi vaziyatda qo'llash" tamoyili asosida tashkil etilganda, o'quvchining real kompetensiya darajasini aniqlash va keyingi ta'limiy ishlarni maqsadli rejalashtirish imkoniyati kengayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF–79-son Farmoni. “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – 2023.
2. Дубова М. В. Диагностирующее задание как средство измерения образовательных компетентностей // Начальная школа. – М.: 2014. – № 5. – С. 26.
3. Карасева Д. С. Взаимосвязанное развитие коммуникативной и лингвистической компетенций учащихся на уроках русского языка: автореф. дис. ... канд. пед. наук. – М., 2018. – С. 28.
4. Львов М. Р., Горецкий В. Г., Сосновская О. В. Методика преподавания русского языка в начальных классах // учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений. – 3-е изд., стер. – М.: Издательский центр «Академия», 2007. – С. 302–303.